



## NUTQIY MULOQOT JARAYINIDA BOG'LOVCHILARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI NAMOYON BO'LISHI

*Usmonov Aslam Karshiboyevich*

Sh.Rashidov nomli SamDU tayanch doktoranti

*Usmonova Umida Baxtiyarovna*

A.Qodiriy nomidagi JDPI o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Usmonov Aslam va Usmonova Umidalarning “Nutqiy muloqot jarayinida bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari namoyon bo'lishi” nomli maqolasida nutqiy muloqot turlarida bog'lovchilarning qo'llanishi va ularning pragmatik ma'no yuzaga keltirishiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada bog'lovchilarning muloqot jarayonida qo'llanishida yuzaga kelgan pragmatik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan va ilmiy tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Nutqiy muloqot, bog'lovchi, pragmatika, mazmun, matn.*

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir. Antropotsentrik paradigmaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan biri muloqot jarayonidir. Muloqot jarayonini nafaqat tilshunoslik, balki ruhshunoslik fani ham o'rganadi. Unga ko'ra, muloqot – bu kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashiniladi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki tuzatiladi.<sup>1</sup>

Muloqotning tizimida o'zaro bir-biriga bog'liq jihatlari ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va pertseptiv. Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari va hokazolarni bir-birlariga yetkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda turli xil birliklardan foydalanamiz. Ehtiyojga ko'ra lisoniy va nolisoniy omillardan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihatchilik qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir informatsiyani tinglovchiga etkazishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi ta'sirlantirishni istaydi Muloqot jarayonida, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar, inson, shaxslararo munosabatni ta'minlash

<sup>1</sup> Мүлоқот психологияси. – Тошкент, 2003. – Б. 4.



vazifasidan tashqari, matn yaratish va fikrni uzviy ifodalash vazifalari ro'yobga chiqadi.<sup>2</sup> Nutqiy muloqotda avvalo so'z, so'z birikmasi, fraza, gap, matn muhim rol o'ynaydi. Bularning ma'nolari va ifoda vositalari ijtimoiy holatlarga ko'ra aniqlanadi. Ana shunday hollarda ba'zan bog'lovchilardan foydalanamiz. Bog'lovchilar nutqiy vaqeylanishi, ifoda imkoniyatlari namoyon qilishi uchun ma'lum bir til birliklarining ta'sirini hamda nutqiy muloqot, nutqiy vaziyatni taqozo qiladi. Nigaki, nutqiy muloqot (diskuts<sup>3</sup>) til birliklarining har qanday ko'zga ko'rinmas, nutqiy aktik ma'nolarni ham yuzaga chaqaruvchi murakkab bir tizmdir.

Nutqiy muloqot - so'lovchi va tenglovchilarning axborotlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilim, ko'nikma, malakalari lisoniy va nolisoniy vositalar bilan birga ko'p tarkibli, rang-barang pragmatik qiymatga ega ta'sir jarayoni.<sup>4</sup> Bog'lovchilar ana shunday pragmatik qiymatga ega ta'sir jarayonida "o'rni" qanday? Bashqacha aytganda, nutqiy muloqot jarayonida ishtirok etayotgan bog'lovchilar qanday pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi? Muloqot qilishning asosiy turlari tarkibida bog'lovchilarning ishtiroki va ularning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Dastavval, muloqotning kommunikatlarning makon va zamonga nisbatan xolatiga ko'ra: kontakt va distant muloqotda bog'lovchilarning qo'llanishi hamda pragmatik xususiyatlariga to'xtalamiz.

Kontakt muloqot – Muloqotning bu turida hamkor-suhbatdosh yonimizda bo'ladi va u bilan bevosita muloqot o'rnatishimiz, imo-ishoralar va turli xil harakatlar orqali bir-birimizga murojaat qilishimiz mumkin. Masalan, yonimizdagi do'stimizni imlab chaqiramiz, rozi yoki noroziligimiz ifodasini labimizni burib, boshimizni qimirlatib bildiramiz. Masalan:

Mahmudiy — Darvoqe... Tanaffus. (Matmusa boshvog'i yechilgan kuchukday chopib borib stulga o'tiradi.) Stop-stop! Boshqatdan. Qani, qanday o'tirish kerak? (Matmusa boshini egib joyiga qaytadi va asta, gerdayib yurib stolga o'tiradi. Shoshmay atrofqa qaraydi. Ikkinchi tumor. Erkin Vohidov 12-bet. Said Xalil undan butunlay qutuldik deb yurganda bugun yana Xo'ja Husayn qayoqdan paydo bo'lib qoldi? Humoyun ham unga alohida ehtirom ko'rsatib o'rnidan turdi va qo'l berdi.

Muloqotda vositachilik qiluvchi "apparat"ning mavjudligi va mavjud emasligiga ko'ra: bevosita va bilvosita muloqotga bo'linadi. Bevosita muloqot bu - odatdagi suhbat, so'zlashuv, doklad va h.k. Muloqotning bu ko'rinishlarida o'ziga xos muloqot maydoni yuzaga keladi. Bu muloqot maydonida bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari o'z aksini topmay qolmaydi. Maslan: O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanidan olingan parchada, persanajlarni o'zaro suhbatida, yo..., yo..., ayruv bog'lovchisi orqali so'zlovchining "faqat hozir" gaplashish istagini namoyon qilmoqda.

Ikki haftalik sukunatdan so'ng portlash ro'y berdi. Mauzer navbatdagi gapdan g'irt mast bo'lib keldi. Oyoqda turolmaydi. Kelin qo'ltig'idan olib, yotoqqa boshlayotgan edi, Mauzer nari itardi.

- Shoshma! D-d-dadam bilan g-gaplashib olishim k-k-erak! Nazira kelinning yoniga kirdi. Aylanib-o'rgilib, o'g'lini insofqa chaqirdi.
- Qo'y, bolam, har qancha gaping bo'lsa, ertaga gaplashasan.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008

<sup>3</sup> Тоирова Г., Прагмалингвистика. Ўқув луғат. - Тошкент, Академнашр, 2016. 9 бет

<sup>4</sup> Бу хақида қаранг: Тоирова Г., Прагмалингвистика. Ўқув луғат. - Тошкент, Академнашр, 2016. 30 бет



- Yo'qqq! — dedi Mauzer og'zidan ko'pik sachratib. — Yo hoz-z-zir, yo h-h-hech qachon! Tushda kechgan umrlar (roman). O'tkir Hoshimov 78-bet.

Bilvosita muloqot turlariga telefonda gaplashish, xat orqali murojaat qilish, axborotni radiodan, televidenidan hamda kitob orqali uzatish kabilar kiradi. Aynan bilvosita muloqot rivoji hayotda juda ko'p o'zgarish va yangiliklarni taqozo qiladi. Bugungi axborot texnologiyalar asrida muloqotning bunday turlari juda ommalishib bir qancha yangi axborot uzatish vositalari bilan boyigan. Bu esa, o'z navbatida, til birliklarini nutqiy muloqot vaqtida so'zlovchi nutqiga xos turli xil oshkora va yashirin ma'nolarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy hayot realiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi dunyoning barcha jamiyatida muloqot o'ta erkin, kutilmagan hamda til qoidalaridan yiroqligi bilan xarakterlanadi.<sup>5</sup>

Muloqotning til birliklarining shakllanishiga ko'ra og'zaki va yozma muloqot turlariga bo'linadi. Bog'lovchilarning bu muloqot turlarida ishtiroki bir xilda emas. Chunki, yozma muloqotda ishlatilgan faol bog'lovchilar har doim ham og'zaki muloqotda ishlatilmaydi yoki aksincha. Muloqotning bunday turlarini yuzaga keltirishda albatta o'ziga xos "shart"lari bor. Og'zaki muloqotning xususiyatlari, elementlari, turlari, afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi: Og'zaki muloqot ovozni tashuvchi sifatida ishlatadigan ikki yoki undan ortiq odam o'rtasida xabar uzatiladigan o'zaro ta'sir turi. Bu so'zlashuv sheriklarining bevosita ishtirokida rasmiy va norasmiy sharoitda o'z-o'zidan amalga oshiriladigan ona tilida so'zlashuvchilarning nutqi. Suhbat barcha til darajalarida muhim xususiyatlarga ega, shuning uchun u ko'pincha maxsus til tizimi sifatida qaraladi. Og'zaki tilning lisoniy xususiyatlari nutq xatolaridan qochish kerak deb o'ylash noto'g'ri. Muvaffaqiyatli og'zaki aloqa - bu muloqot tashabbuskorlarining kommunikativ maqsadini amalga oshirish va suhbatdoshlarning roziligi. Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun shart-sharoitlar suhbatdoshlarning qiziqishi, qabul qiluvchining dunyosidagi kayfiyat, suhbatdoshning kommunikativ rejasiga kirish qobiliyati, suhbatdoshlarning vaziyatga oid nutq xatti-harakatlarining qat'iy talablarini qondirish qobiliyati, haqiqiy vaziyat kabi omilar zarur Bo'ladi. M.:

- Talqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo'lak lavlagini puflab-puflab yer ekan.
- Qo'rquv ichida oyimga qaradim. Qiluvdim, –dedi u sekin.
- Qolmadimi?
- O'g'ir o'lgur ag'darilib ketdi, –dedi onam ayibdor ohangda.
- Nima? Dadam lavlagi bo'lagini qo'lida tutganicha jahl bilan onamga qaradi.
- To'kilib ketdi, –dedi oyim boshini quyi solib.

*Padaringga la'nat! –dedi dadam sekin, ammo tahdidli ohangda.* Kitobdan (O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari qissasi 17-bet) olingan ushbu parchada muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun shart-sharoit bo'lsada, suhbatdoshning kommunikativ rejasiga kirish qobiliyati, suhbatdoshlarning vaziyatga oid nutq xatti-harakatlarining qat'iy talablarini qondirish qobiliyati kabi omilar etishmadi. Natijada suhbat ko'p uzoqqa bormadi. Kommunikantning kommunikativ

<sup>5</sup> Маткаримова Ашурхон Исмоиловна "Хурмат" семантик майдонини ифодаловчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари Андижон – 2021



niyati “o’g’lining talqonni tukib yuborgani” ni yashirish maqsadida “O’g’ir o’lgur ag’darilib ketdi” shakldagi nutqiy gapni ifodalashi orqali, tinglovchi uning kommunikativ niyatini tushunmadi va unga nisbatan g’azab akti yuzaga keldi. Buni muloqotga guvoh bo’lgan muallifning nutqidan ham anglash qiyin emas.

#### Adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008
2. Тоирова Г., Прагмалингвистика. Ўқув луғат. - Тошкент, Академнашр, 2016.
3. Мулоқот психологияси. – Тошкент, 2003
4. Маткаримова А. “Хурмат” семантик майдонини ифодаловчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Андижон, 2021
5. Usmonov, A. (2020). LINGUAPRAGMATIC ASPECTS OF UZBEK LANGUAGE. Архив Научных Публикаций JSPI, 18(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1744](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1744)
6. Usmonova, U. (2020). Effecteve ways of teaching. Архив Научных Публикаций JSPI, 18(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1740](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1740)
7. Usmonov, A. (2020). Subyekt va uning ifodalanishiga doir ayrim mulohazalar(T.Malik asarlari misolida. Архив Научных Публикаций JSPI, 18(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/174](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/174)
8. Usmonov, A. (2020). LINGUAPRAGMATIC ASPECTS OF UZBEK LANGUAGE. Архив Научных Публикаций JSPI, 18(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1744](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1744)
9. Usmonova, U. (2020). Effecteve ways of teaching. Архив Научных Публикаций JSPI, 18(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1740](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1740)
10. Usmonov, A. (2020). O’ZBEK TILIDA SO’ZLARNING TUZILISHI JAHATIDAN TURLARINI O’QITISHDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH. Архив Научных Публикаций JSPI, 20(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1870](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1870)
11. Usmonov, A. (2020). Subyekt va uning ifodalanishiga doir ayrim mulohazalar(T.Malik asarlari misolida. Архив Научных Публикаций JSPI, 18(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1745](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1745)
12. Usmonov, A. (2020). LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF THE UZBEK LANGUAGE EQUIVALENT. Архив Научных Публикаций JSPI, 22(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/1859](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1859)
13. Usmonov, A. (2020). OF THE UZBEK LANGUAGE EQUIVALENT. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(56). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4669](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4669)
14. Usmonov, A. (2020). Применение и анализ персидских качественных прилагательных в «Бабурнаме» . Архив Научных Публикаций JSPI, 24(1), 5. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/2661](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2661)



15. Usmonov, A. (2020). Importance of speaking skill and its developing ways . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4010](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4010)
16. Usmonov, A. (2020). Bog'lovchilarni o'qitishda dedaktik o'yinlardan foydalanish. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(55). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4665](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4665)
17. Usmonov, A. (2020). Bog'lovchilarning badiiy matnda pragmatik xususiyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(56). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4666](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4666)
18. Usmonov, A. (2020). Bog'lovchilarning funksional-stlistik xususiyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(54). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4670](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4670)
19. Usmonov, A. (2020). Vazifadosh bog'lovchilarning funksional-stlistik xususiyatlari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(55). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4672](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4672)
20. Usmonov, A. (2020). LINGUOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF THE UZBEK LANGUAGE EQUIVALENT. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(38). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5970](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5970)
21. Usmonov, A. (2020). SUBSTANTIAL NATURE OF FUNCTIONAL WORDS AND THEIR PRAGMATIC-STYLISTIC VALUE. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(39). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6012](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6012)
22. Usmonov, A. (2020). Punktuatsiya (Tinish belgilari) o'qitish metodikasi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(65). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4015](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4015)